O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/1



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/1

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
S.B. Repkin
Bek Mun Jong
I.P. Sivoxin
N.T. To‘xtaboyev
B.K. Erimbetov
I.B. Aliyev
L.P. Yugay
D.X. Umarov
A.K. Eshtayev
K.SH. Ziyadullayev
N.J. Isakulova
A.B. Jumaniyazov
M.M. Qirg‘izboyev

Tahrir hay’ati kotibi

SH.X. Toshturdiyev
B.A. Ishimov
R.I. Isroilov
A.U. Rashidov
O.Y. Mamishev
A.S. Gonashvili

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N.G‘afforov
U.O. Azimova
SH.B. Aliyeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Г.М. Зоитова., А.Р. Машарипов., Д.А. Холмуродова., М.Н. Исломова., Н.А. Убайдуллаева – Комплексная оценка постурального контроля и физической подготовленности спортсменок сборной команды Республики Узбекистан по синхронному плаванию. 3

O.O. Kasimov – Xalqaro sport musobaqalarida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlari. 6

N.R. Saidova – Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning mashg‘ulotlarini kompleks nazorat qilish orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 9

A.T. Ro‘zmetov – Voleybolda to‘p qabul qilish va uzatish aniqligini takomillashtirish texnologiyasi samaradorligi. 13

Г.Т. Саидова – Сравнительная оценка соматотипологических особенностей спортсменок, занимающихся фехтованием и художественной гимнастикой. 17

Е.С. Епифанова – Влияние специфики тренировочного процесса тяжелоатлеток в подготовительном периоде. 20

D.S. Nishanova – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi basketbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samarali uslubiyati. 23

X.X. Qurbonov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar mashg‘ulotlarini tashkil etish uslubiyati. 27

С.Ф. Ашуркова., А.А.Умматов – Развитие скоростно-силовых способностей волейболисток 14-15 лет с использованием специальных упражнений легкоатлетов. 32

M.K. Jumaniyazov – Regbi sportchilarida chidamlilikni rivojlantirish usullari va ularning funksional ko‘rsatkichlarga ta’siri. 36

N.A. Egamberdiyeva – Yosh basketbolchilarni kombinatsiyalangan mashqlar orqali o‘yin texnikasini optimallashtirish uslubiyati. 39

H.E. Musulmonov – Malakali belbog‘li kurashchilarda usullarni o‘ng- chap tomonlama qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari va uning samaradorligi. 43

F.V. Ganiyeva – Malakali basketbolchilarning jismoniy konditsiyalarini takomillashtirishda maxsus jismoniy mashqlardan foydalanish omili. 47

A.T. Xasanov., B.B. Xaitbayeva – Ritmik gimnastika vositalarini o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va samaradorligi. 51

J.M. Shukurllayev – Mini voleybolni voleybolga integratsiyalash jarayonida mashg‘ulotlar piramidasining metodik asoslari. 54

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/1

J.O. Xajibaev – Dzyudochilarning yillik tayyorgarlik davrida kuch tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 59

M.A. Umbetova – Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanish darajasini aniqlash va rivojlantirish samaradorligi. 62

A.O‘. Matnazarov – Og‘ir atletikachilarning siltab ko‘tarish mashqini tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish. 67

M.O. Xamudov – 400 metrga yuguruvchi o‘quv-mashg‘ulot guruhi sportchilarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi. 71

A.M. Yusupov – Kurashchilarni texnik usullarini bajarishdagi tezkor kuch sifatini rivojlantirish. 75

P.P. Акрамов – Планирование технической подготовки юных пловцов с учётом возрастных особенностей двигательного развития. 77

A.A. Boltayev – Yuqori malakali voleybolchilarda maxsus ish qobiliyatining tezokrlik-kuch komponentlari. 80

G‘.U. Berdiyev – Jismoniy tarbiya darslarini ochiq havoda o‘tkazishda issiq iqlim sharoitining mashg‘ulot o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri. 83

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

M.B. Akbarov – Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishda yengil atletika mashg‘ulotlariga gimnastika vositalarini integratsiya qilish samaradorligi. 88

Ф.А. Соловьева – Перспективы применения искусственного интеллекта в менеджменте фитнес-индустрии: анализ цифровых решений. 91

O.K. Raupov., N.I. Isoev., A.A. Kurbonov – Oliy ta’lim muassasalarida sport mashg‘ulotlarini qiziqarli va interaktiv shakllarda tashkil etish samaradorligi. 94

J.A. Ochilov – Zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning sportga oid ta’lim tarbiya madaniyatini takomillashtirish. 97

A.A. Mamatkulov – I-IV sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishlarida total va parsial ko‘rsatkichlar tahlili. 99

T.U. Ismoilov – Yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda davlat direktiv hujjatlarining ahamiyati. 104

A.A. Tursunov – Voleybolda to‘pni qabul qilish va uzatish texnikasi aniqligini erta yosh bosqichida shiddatli yuklamalar asosida shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. 107

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА

М.Г. Хайдаров., М.Р. Ташев – Формирование и совершенствование бросковых навыков в спортивной игре «бочча». 111

X.S. Arabov – Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi futbolchilar tayyorgarligini oshirishda kompleks harakatlar texnologiyasini qo‘llash mexanizmi. 114



O.O. KASIMOV[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

10.65149/fansport.2026.v9i1.a002

XALQARO SPORT MUSOBAQALARIDA SPORTCHILAR ISHTIROKIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya

В данной статье системно проанализирована правовая сущность конфликтных ситуаций, возникающих с участием спортсменов в международных спортивных соревнованиях, факторы, способствующие их возникновению, а также международно-правовые механизмы, применяемые для разрешения таких споров. Кроме того, в статье исследуются основные источники международного спортивного права, практика спортивного арбитража, регламенты спортивных федераций и эффективность альтернативных механизмов разрешения споров.

Ключевые слова: *международное спортивное право, спортивные споры, арбитраж, дисциплинарная ответственность, правовой механизм, права спортсменов.*

Abstract

Mazkur maqolada xalqaro sport musobaqalarida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning huquqiy mohiyati, ularni keltirib chiqaruvchi omillar hamda ushbu nizolarni hal etishda qo‘llaniladigan xalqaro huquqiy mexanizmlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada xalqaro sport huquqining asosiy manbalari, sport arbitraji amaliyoti, sport federatsiyalari reglamentlari hamda nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarining samaradorligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar*: xalqaro sport huquqi, sport nizolari, arbitraj, intizomiy javobgarlik, huquqiy mexanizm, sportchi huquqlari.*

This article provides a systematic analysis of the legal nature of conflict situations arising from the participation of athletes in international sports competitions, the factors contributing to their emergence, as well as the international legal mechanisms applied to resolve such disputes. In addition, the article examines the main sources of international sports law, the practice of sports arbitration, the regulations of sports federations, and the effectiveness of alternative dispute resolution mechanisms.

Keywords: *international sports law, sports disputes, arbitration, disciplinary responsibility, legal mechanism, athlete rights.*

Dolzarbligi. So‘nggi yillarda sportning globallashuvi, xalqaro musobaqalar sonining ortishi va professional sportchilarning huquqiy faolligining kuchayishi natijasida sport sohasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar ko‘lami kengayib bormoqda. Xalqaro sport musobaqalari nafaqat sport natijalari, balki huquqiy munosabatlar murakkablashuvi bilan ham tavsiflanadi [1]. Sportchilarning diskvalifikatsiyasi, doping bilan bog‘liq holatlar, hakamlik qarorlariga e’tirozlar, shartnomaviy nizolar va intizomiy jazolar ushbu sohadagi eng ko‘p uchraydigan nizoli vaziyatlar hisoblanadi. Xalqaro sport tizimida yuzaga keladigan bunday nizolarni hal etish oddiy milliy sud tizimi doirasidan chiqib ketadi. Chunki, sport federatsiyalari mustaqil normativ-huquqiy tizimga ega bo‘lib, o‘z nizolarini maxsus sport arbitraji va ichki intizomiy organlar orqali hal etadi. Shu sababli sport nizolarini huquqiy tartibga solish masalasi zamonaviy sport huquqining dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda [2].

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston sportchilarining xalqaro sport musobaqalarida ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Xalqaro sport musobaqalari doirasida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar sport huquqining mustaqil va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur nizolar sport faoliyatining yuqori raqobat muhiti, qat’iy reglamentlar va ko‘p subyektli huquqiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni hal etish o‘ziga xos huquqiy mexanizmlarni talab etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sportchilar bilan eng ko‘p uchraydigan nizolar qatoriga intizomiy nizolar kiradi. Bunday nizolar sportchilarning musobaqa qoidalarini buzishi, sport etikasi normalariga rioya etmasligi yoki raqibga nisbatan agressiv xatti-harakatlar sodir etishi natijasida yuzaga keladi [3]. Ushbu nizolarni hal etishda xalqaro sport federatsiyalarining intizomiy kodekslari asosiy huquqiy manba sifatida xizmat qiladi. Intizomiy qo‘mitalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar sport ichki avtonomiyasi tamoyiliga asoslanadi hamda apellyatsiya mexanizmlari orqali qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Alohida e’tiborga loyiq nizolar guruhi doping bilan bog‘liq nizolar bo‘lib, ular sportchilar tomonidan taqiqlangan moddalar yoki usullarni qo‘llash, shuningdek antidoping qoidalarini buzish bilan izohlanadi. Mazkur nizolarni hal etish jarayonida xalqaro miqyosda yagona huquqiy hujjat hisoblangan Jahon anti-doping agentligining kodeksi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Doping nizolari qat’iy protsessual tartibda ko‘rib chiqiladi va sportchining huquqiy kafolatlarini ta’minlash maqsadida mustaqil arbitraj mexanizmlariga murojaat qilish imkoniyati mavjud.

Xalqaro musobaqalarda tez-tez uchraydigan nizolardan yana biri hakamlik qarorlariga nisbatan e’tirozlardir. Ushbu nizolar asosan hakamlarning subyektiv bahosi, texnik xatolar yoki baholash tizimidagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Amaldagi sport huquqi amaliyotida hakamlik qarorlari ko‘p hollarda yakuniy hisoblanadi, biroq ayrim sport turlarida texnik apellyatsiya komissiyalari orqali cheklangan doirada qayta ko‘rib chiqish mexanizmi mavjud. Shuningdek, diskvalifikatsiya va musobaqadan chetlashtirish bilan bog‘liq nizolar sportchilar huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim masala hisoblanadi. Bunday nizolar sportchining musobaqada ishtirok etish huquqini vaqtincha yoki butunlay cheklash bilan bog‘liq bo‘lib, ularni hal etishda protsessual adolat va mutanosiblik tamoyillariga qat’iy rioya etilishi talab etiladi.

Xalqaro sport munosabatlarida shartnomaviy nizolar ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu nizolar sportchi va klub, sportchi va federatsiya o‘rtasidagi mehnat-huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga keladi. Shartnomaviy nizolarni hal etishda milliy mehnat qonunchiligi bilan bir qatorda sport federatsiyalarining maxsus reglamentlari qo‘llaniladi [4]. Umuman olganda, xalqaro sport musobaqalarida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etish mexanizmlari sport huquqining maxsus tizimini tashkil etib, ular sportchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu mexanizmlarning samarali faoliyati sport tizimida adolat, shaffoflik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biz tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston sportchilarining xalqaro sport musobaqalarida ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlarini quyidagicha ishlab chiqdik (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro sport musobaqalarida O‘zbekiston sportchilari bilan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlari

T/r	Nizol turlari	Yuzaga kelish sabablari	Huquqiy hal etish mexanizmlari
1	Intizomiy nizolar	Sport qoidalarini buzish, qo‘pol xatti-harakatlar, sport etikasi normalariga rioya qilmaslik	Xalqaro sport federatsiyalarining intizomiy kodekslarini milliy qonunchiligimizga kiritish
2	Doping bilan bog‘liq nizolar	Taqiqlangan moddalarni qo‘llash, antidoping qoidalarini bilmaslik, tibbiy ruxsatnomalarning yo‘qligi	Jahon anti-doping agentligi kodeksi asosida milliy antidoping agentligini takomillashtirish
3	Hakamlik qarorlariga e’tirozlar	Subyektiv baholash, texnik xatolar, VAR yoki texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish	Xalqaro musobaqa reglamentlari asosida uslubiy yo‘riqnomalar ishlab chiqish
4	Diskvalifikatsiya va chetlashtirish nizolari	Qoidabuzarlik, xavfsizlik talablarini buzish	Xalqaro sport federatsiyalarining reglamentlarini o‘rgatish yuzasidan treninglar o‘tkazish
5	Shartnomaviy nizolar	Klub va sportchilar o‘rtasidagi mehnat shartnomasi buzilishi, moliyaviy majburiyatlar bajarilmasligi	Milliy mehnat qonunchiligini sport federatsiyalari reglamentlari bilan uyg‘unlashtirish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro sport musobaqalarida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar sport huquqining murakkab va ko‘p bosqichli huquqiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu nizolar sport faoliyatining yuqori raqobat muhiti, qat’iy reglamentlar va ko‘p subyektli boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni samarali hal etish maxsus huquqiy mexanizmlarni talab etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sport nizolarini hal etishda sport federatsiyalarining ichki normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro sport tashkilotlari reglamentlari hamda mustaqil arbitraj institutlari o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritadi [5]. Ayniqsa, doping, intizomiy va shartnomaviy nizolarni ko‘rib chiqishda yagona protsessual standartlarning mavjudligi sportchilarning huquqiy kafolatlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, birgina doping muammosi yuzasidan mamlakatimiz sportchilarining 2021-2024-yilardagi statistikasi ham yuqoridagi masalalar dolzarbligini korsatadi (2-jadval).

2-jadval

Sportchilarimizning 2021-2024 yillarda doping moddalarini qabul qilish statistikasi

Taqiqlangan modda sinfi	Jami holatlar	Moddalar	Taqiqlanish darajasi	Kategoriya
S1. Anabolik agentlar	16	Testosteron va uning analoglari – 5, Metasteron – 3, Oksandrolon – 2, Drostanolon – 2, Boldenon – 1, Metandienon – 1, Trenbolon – 1, Klenbuterol – 1.	Doimiy taqiqlangan	Nospetsifik
S4. Gormonlar va metabolizm modulyatorlari	10	Meldoniy – 7, Klomifen – 3.	Doimiy taqiqlangan	Nospetsifik (Meldoniy), Spetsifik (Klomifen)

S5. Diuretiklar va niqoblovchi vositalar	6	Furosemid – 5, Kanrenon – 1.	Doimiy taqiqlangan	Spetsifik
S2. Peptid gormonlari, o‘sish omillari va mimetiklar	1	Eritropoetin – 1.	Doimiy taqiqlangan	Nospetsifik

2021-2024 yillarda sportchilarimiz tomonidan aniqlangan taqiqlangan moddalar quyidagi toifalarga bo‘lingan: Eng ko‘p aniqlangan moddalar - anabolik agentlar (16 ta holat). Testosteron va uning analoglari, metasteron va oksandrolon eng ko‘p uchragan. Meldoniy eng ko‘p aniqlangan taqiqlangan moddalar ro‘yxatida (7 ta holat). Diuretik va niqoblovchi vositalar bo‘yicha furosemid eng ko‘p qo‘llangan (5 ta holat). Eritropoetin bir marta aniqlangan bo‘lib, u qon orqali kislorod yetkazib berishni yaxshilovchi modda hisoblanadi. Bu statistikalar sportda dopingga qarshi kurashning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislardan iborat bo‘lgan, musobaqalarga hamda ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlariga tayyorlanish va ularda O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida qatnashish maqsadida tashkil etiladigan turli tashkilotlarning jamoalari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a’zolarining xalqaro musobaqalarda nizoli vaziyatlardan chiqish ko‘nikmalari tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

Sport turlari bo‘yicha O‘zbeksiton milliy terma jamoa a’zolarining xalqaro musobaqalarda nizoli vaziyatlardan chiqish ko‘nikmalari

Sportchilar	Guruh	Tajribadan oldin			Tajribadan keyin			O‘rtacha (T-A)	O‘rtacha (T-A)	NG', (%)	χ^2	P
		Baho ko‘rsatkichlari			Baho ko‘rsatkichlari							
		Qoniqarli	Yaxshi	A’lo	Qoniqarli	Yaxshi	A’lo	TB	TO			
O‘gir atletika	NG	9	7	4	8	8	4	11	12	6,00	4,12	<0,01
	TG	8	9	3	6	10	4	12	14	14,55		
Velosport	NG	7	8	4	7	8	5	13	13	6,00	3,98	<0,01
	TG	8	8	4	6	11	5	12	15	14,55		
Yengil atletika	NG	9	6	5	8	8	4	11	12	5,86	3,89	<0,01
	TG	8	9	3	6	12	2	12	14	13,79		

Izoh: NG – nazorat guruhi, TG – tajriba guruhi.

3-jadvalga ko‘ra, Og‘ir atletika sportchilarida nazorat guruhida “yaxshi + a’lo” darajada baholanganlar soni tajribadan oldin 11 nafarni, tajribadan keyin 12 nafarni tashkil etib, o‘sish minimal bo‘ldi. Tajriba guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 12 nafardan 14 nafarga oshib, ancha yuqori ijobiy siljish kuzatildi. Velosportda nazorat guruhida tajribadan oldin va keyin “yaxshi + a’lo” baholangan sportchilar soni 13 nafardan iborat bo‘lib, deyarli o‘zgarish kuzatilmadi. Tajriba guruhida esa bu ko‘rsatkich 12 nafardan 15 nafarga oshdi, ya’ni tajribadan keyin yuqori baholangan sportchilar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Yengil atletika sportchilarida nazorat guruhida “yaxshi + a’lo” darajadagi sportchilar soni 11 nafardan 12 nafarga oshgan bo‘lsa, tajriba guruhida ushbu ko‘rsatkich 12 nafardan 14 nafarga yetdi. Umuman olganda, barcha sport turlari bo‘yicha tajriba guruhlarida tajribadan keyin “yaxshi” va “a’lo” darajada baholangan sportchilar soni barqaror va sezilarli oshgani, “qoniqarli” darajadagilar ulushi esa kamaygani aniqlandi. Statistik tahlil natijalari ($P<0,01$) ushbu o‘zgarishlarning ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Bu esa qo‘llanilgan pedagogik ta’sirlar sportchilarning nizoli vaziyatlardan chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro sport musobaqalarida sportchilarimiz ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlari murakkab va ko‘p bosqichli tizimni tashkil etadi. Tadqiqot natijalari ushbu mexanizmlarning sportchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi “Sport terma jamoalari to‘g‘risidagi nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ”gi 173-son qarori.

2. Sport terma jamoalari to‘g‘risida uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, – T. 2025 y. – 15 b.

3. Бриллиантова А.М. Спортивный арбитраж как способ рассмотрения споров в области профессионального спорта (сравнительно-правовой аспект) // Спорт: экономика, право, управление. 2004. №2. С. 6.

4. Иглин А.В. Спорт и право (международный аспект): Монография. - М.: Юрлит-информ, 2012. - 296 с.

5. Алексеев С.В. Международное спортивное право: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям 030500 «Юриспруденция» и 032101 «Физическая культура и спорт» / Под ред. П.В. Крашенинникова. – М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2008. – 895 с.


YONEX
Knock-Out Stage
CUI/PENG
HN/LEE
'4 Mixed Team - Knock-Out Stage
KARUNAKARAN Sathish Kumar
SU Li Yang
RHINE-RUHR 2025
FISU WORLD UNIVERSITY GAMES
Nikon
Deloitte.
RIEDEL
macron
YONEX
WESTLOTTO
RIEDEL
macron